

HUDUDNING BARQARAR RIVOJLANISHIDA “YASHIL IQTISODIYOT” NING O’RNI

B.K.Abdusamatov

i.f.n. Sam DAQU “Biznesni boshqarish” kafedrası dotsenti.

I.A.Yusupov

SamDAQU “Biznes boshqarish” kafedrası tadqiqotchisi.

Tel: +99891 313 33 44

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17901855>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatning “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish jarayonini tartibga soluvchi huquqiy va me’yoriy hujjatlar ko’rib chiqiladi. Yashil iqtisodiyotga o’tishning maqsad va asosiy bosqichlariga, shuningdek, mamlakat hududlarida barqaror rivojlanish mezonlarini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Yashil yondashuv doirasida barqaror rivojlanishning asosiy yo’nalishlari e’tiborga olinib, qurilish faoliyatining atrof - muhitga ta’siri organilib qurilish jarayoning “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish bugungi kunning asosiy jarayonlaridan biri ekanligidan kelib chiqib, mintaqaviy rivojlanishda xizmat qiladigan ushbu ilmiy maqola natijalarining ahamiyatini alohida ta’kidlashni lozim deb bilamiz.

Kalit so’zlar: barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, iqlim, modernizatsiya, yashil maydon, raqobatbardoshlik, yashil relslar.

Kirish. Mamlakatimizda tarkibiy o’zgarishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning hududlarida mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Demak, hududni barqaror rivojlanishni taminlash uchun — “Yashil iqtisodiyot” o’z o’rniga ega.

Iqlim o’zgarishi Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishining asosiy muammolaridan biriga aylandi, dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev Dubayda bo’lib o’tgan COP28 sammitida. U yashil iqtisodiyotga o’tish va uglerod neytralligiga erishish “Yangi O’zbekiston uchun strategik maqsad” ekanligini ta’kidladi [1].

Iqlim o’zgarishi va uning ta’siri jahon iqtisodiyotining global barqaror rivojlanishi va dunyo aholisi farovonligi uchun ustuvor muammolar va tahdidlardir. Bu muammo qishloq xo’jaligi, energetika, infratuzilma va sog’liqni saqlash kabi muhim iqtisodiyot tarmoqlariga ta’sir ko’rsatadi, bu esa o’z navbatida Yalpi ichki mahsulot o’sishi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, pirovardida, ekologik va milliy xavfsizlikka salbiy ta’sir ko’rsatadi [2].

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “O’zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha Yashil iqtisodiyotga o’tkazishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni, 2022-2026-yillarda Yangi O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, iqtisodiy o’sish samaradorligini oshirish va Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari doirasida amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda O’zbekistonni modernizatsiya qilishning har bir strategiyasida hududlarning yashil yo’lga o’tishiga asoslangan barqaror va samarali iqtisodiy modelni barpo etish bo’yicha aniq yo’nalishlar belgilangan.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi: Dunyo bo'ylab iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish uchun qonunchilik bazasini o'rganish ilmiy qiziqish uyg'otadi va jahon va milliy ilmiy adabiyotlarda muhokama qilinadi. Bu tadqiqotga o'z hissasini qo'shgan olimlardan S. N. Bobylev [3], N. E. Antonova, N. V. Lomakina [4] va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

D. Prays va A. Markandya “Yashil iqtisodiyot”ning tabiati va ijtimoiy-ekologik muammolarini chuqur tahlil qildilar [5].

A.Stayner, R.Iris va S.Bassalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar “Yashil iqtisodiyot”ning afzalliklarini o'rganib chiqdi va uning mamlakatda barqaror o'sishni ta'minlash va qashshoqlikni bartaraf etishdagi rolini aniqladi [6].

S. N. Xashimov va A. A. Abdikarimovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Yashil iqtisodiyot va raqamlashtirish iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida o'rganilgan, barqaror rivojlanishning asosiy omili sifatida raqamlashtirish va yashil iqtisodiyot [7] keltirilgan. Katta hajmdagi bajarilayotgan ishlarga qaramay, hududlarda qurilish tizimini ham “Yashil iqtisodiyot”ga o'tishni taqozo etadi, bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari, rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar tashkil etdi. Mualliflar olimlar va amaliyotchilar tomonidan nashr etilgan yondashuvlarni o'rganish, tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanganlar.


Bugungi kunda yashil binolarga bo'lgan talab ortib bormoqda va bu, ayniqsa, butun dunyo bo'ylab binolarni qurishda ishlatiladigan ekologik etiketli materiallar sonining ko'payishida yaqqol namoyon bo'ladi. So'nggi 10 yil ichida Yashil qurilish dasturlari doirasida sertifikatlangan kvadrat metrlar soni sezilarli darajada oshdi. Standartlar, siyosat va qoidalar xom ashyoni qazib olishdan binoni buzish va uning tarkibiy qismlarini qayta ishlashgacha bo'lgan binoning hayotiy tsiklini tahlil qilishdan foydalangan holda ishlab chiqiladi. Umuman olganda, qurilish sanoati tobora yashil qurilish usullariga o'tmoqda [8].

Shunday qilib, qurilish industriyasining kelajagi atrof - muhitga va unda yashovchi odamlarga zararlar ta'sirini kamaytirish asosida kelajakdagi iqtisodiy rivojlangan “Yashil” qurilish, degan xulosaga kelishimiz mumkin, ammo bu nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, takomillashtirishni talab qiladi va katta salohiyatga ega [9].

“Yashil” qurilish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, yashil devorlar mavjudligi binoning maydoni (3250 m²) bilan solishtirganda yashil maydonning ko'proq qoplanishiga (4765 m²), yuqori energiya sarfini va umumiy energiya xarajatlarini kamaytirishga, atrofdagi mikroiklimni o'zgartirishga va havo sifatini yaxshilashga, estetik jozibadorlikni oshirishga olib keldi [10].

Yashil bino - bu shahar va atrof-muhitning o'zaro ta'siriga qaratilgan binolarni qurish va ishlatish jarayoni. Yashil qurilishning maqsadi - binoning butun hayoti davomida energiya va moddiy resurslar sarfini kamaytirish, ekologik toza materiallardan foydalanish va ekologik muammolarni hal qilish uchun innovatsiyalarni joriy etish.

Yashil binolar atrof - muhitga kamroq zarar etkazadi, bu esa barqaror shahar rivojlanishiga hissa qo'shadi. "Yashil" qurilishning uchta asosiy tushunchasi quyidagilarda namoyon bo'lishi mumkin degan fikrdamiz:



1-rasm.Muallif ishlanmasi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotda Yashil iqtisodiyot asosida inson salomatligi uchun xavfsiz Yashil uylarni qurish vositasi sifatida o'rganib chiqildi. Hududda Yashil qurilishni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar har tamonlama o'rganilib, Yashil kontseptsiya rivojlantirish va hududlarda ushbu amaliyotni kengaytirishga yordam beruvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida duch kelgan qiyinchiliklardan biri, hududlar bo'yicha Yashil qurilish bilan bog'liq ma'lumotlarning etishmasligi bo'ldi.

Yashil qurilishni amalga oshirishda:

- Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish.
- CHiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish
- Suv resurslarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish
- "Sof", "barqaror" yoki "Yashil binolar"ni rivojlantirish.
- Uy-joy kommunal xo'jaligida energiya samaradorligini oshirish.
- Ekotizimlarni saqlab qolish va boshqaruv samaradorligini oshirish
- "Yashil texnologiyalar"ni yaratish va sotish bozorlarini rivojlantirish
- barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalar faolligini oshirish
- Yashil texnologiyalardan foydalangan holda qurilgan binolar ularda yashaydigan odamlarning sog'lig'ini saqlashga yordam beradi, bu esa tibbiy sug'urta to'lovlaridan yo'qotishlarni kamaytirishi mumkin;

- hududlarda "Yashil" iqtisodiyotga o'tishda qaysi moliyaviy instrument (dastak)lardan foydalanmoqchi ekanini aniqlab olish;

- "Yashil texnologiyalar"ni qo'llashda banklar tomonidan BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'liq biznes-loyihalarga alohida e'tibor qaratish;

- birinchi navbatda Yaqin istiqbolda "Yashil taraqqiyot"ning intellektual kuchi hisoblangan malakali kadrlar yetishmovchiligi muammosini hal etish;

- hududda "Yashil" iqtisodiyotga tezroq va nisbatan og'riqsiz o'tish uchun ilm-fan va innovatsiyalarni jadal rivojlantirish zarur.

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va turmush sifatini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan takomillashtirib borish lozim.

2. Yashil qurilishni va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo'lishini inobatga olgan holda, bu resurslarni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo'nalishlardagi ishlarni jadallashtirish lozim.

3. Atrof-muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish va joriy etish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim.

4. Tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ko'rish zarur.

5. Aholining doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda katta ahamiyat berish lozim.

6. Hududlarda binolarni qurishda "Yashil" tommlar uslubidan foydalanish zarur.

7. Hududlarda "Yashil" binolarni qurishda *Energiesprong* dasturidan foydalangan holda amalga oshirish kerak.

8. Hududlarda "Yashil" binolarni qurishda "Passiv uy" kontseptsiyasidan foydalangan holda amalga oshirish lozim.

Yuqoridagi fikr mulohazalarga nisbatan xulosa qiladigan bo'lsak, "Yashil" qurilish atrof – muhit holatini yaxshilash uchun kurashda va ekologik falokatning oldini olishda eng ajoyib echimlardan biri ekanligi ko'rinib qolmoqda. U tabiiy muhitni saqlash va erdagi hayot manbaini yaratishga xizmat qiladi degan fikrdamiz.

Foydalangan adabiyotlar ro'yzati

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 1-dekabr kuni Dubay shahrida bo'lib o'tayotgan BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi (COP28) Yalpi majlisidagi nutqi.
2. The Swiss Re Institute (2021). World economy set to lose up to 18% GDP from climate change if no action taken, reveals Swiss Re Institute's stress-test analysis.
3. Бобылев С.Н. Устойчивое развитие: парадигма для будущего // Мировая экономика и международные отношения. – 2017. – № 3. – с. 107-113. – doi: 10.20542/0131-2227-2017-61-3-107-113.
4. Антонова Н.Е., Ломакина Н.В. Модель «зелёной» экономики и её имплементация в ресурсных регионах // Регионалистика. – 2019. – № 5. – с. 31-49. – doi: 10.14530/reg.2019.5.31.
5. Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp.
6. Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. и др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011.

7. С.Н.Хашимова., А.А.Абдикаримова. «Зеленая экономика и цифровизация для обеспечения устойчивого развития». Volume 3 issue 2–223. <https://www.researchgate.net/publication/371165648>.
8. Паскаль Эвеллард, директор по экологическому строительству Группы «Сен-Гобен» Центр исследований и развития Weber (Saint-Gobain), г. Егорьевск, Московская область. Зеленое строительство с ISOVER 3 стр.
9. Электронный научный архив УрФУ <https://elar.urfu.ru> “bitstream” sueb_2019_027.
10. В. Морозова, Т. С. Куницкая, Зеленое строительство. Сметно-договорная работа в строительстве. 2022;2.
11. Abdusamatov, B. K., R. M. Egamov, and SH B. Abdusamatov. "Some of the Improvements in Entrepreneurship in the Construction Industry." *JournalNX*: 189-193.